

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA  
YO'NALТИРИШДА INNOVATSION YONDASHUV**

*Ruzmatova Dilso'z Mamurdjonovna*

*Buxoro viloyati Qorako'l tumani*

*7- umumta'lism maktabi psixolog*

*Do'lanova Mavjuda Jo'raqulovna*

*22-umumta'lism maktabi psixolog*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumtalim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash ishlarni tashkil qilish, o'quvchilarni kasbga doir ko'nikmalarini oshirish, ushbu ishlarni tashkil qilishning ilmiy uslubiy ahamiyatlari haqida yangicha qarashlar berilgan bo'lib barcha pedagog va foydalanuvchilar uchun muhim jihatlar yoritib berilgan. Hozirgi vaqtda maqolada keltirilgan uslublarni qo'llagan holda yuqori natijalarga erishish mumkin deb hisoblayman.

**Kalit so'z:** kasb-hunarga yo'llash, fundamental yondashuv, ana'naviy (diagnostik), zamonaviy (rivojlantiruvchi)yondashuv, frilansing yo'nalishi va h.klar.

**INNOVATIVE APPROACH TO ORIENTATION OF STUDENTS TO  
VOCATION IN COMPREHENSIVE SCHOOLS**

*Ruzmatova Dilsoz Mamurdjonovna*

*Karakul district, Bukhara region*

*Psychologist of secondary school No. 7*

*Dulanova Majduda Joraqulovna*

*Psychologist of secondary school No. 22*

**Annotation:** This article presents new views on the organization of vocational guidance of students in secondary schools, improving students' professional skills, and the scientific and methodological significance of organizing this work, highlighting important aspects for all teachers and users. Currently, I believe that high results can be achieved using the methods presented in the article.

**Keywords:** vocational guidance, fundamental approach, traditional (diagnostic), modern (developmental) approach, freelance direction, etc.

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПРОФОРИЕНТАЦИИ В  
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

*Рузматова Дилсоз Мамурджоновна*

Каракульский район Бухарской области.

Психолог в 7 классе

Доланова Маджуда Джуракуловна

Психолог средней школы № 22

**Аннотация:** В статье излагаются новые взгляды на организацию профессиональной ориентации учащихся средних школ, повышение профессиональной квалификации учащихся, научно-методическое значение организации этой работы, подчеркиваются важные аспекты для всех педагогов и пользователей. Я считаю, что в настоящее время, используя представленные в статье методы, можно добиться высоких результатов.

**Ключевые слова:** профориентация, фундаментальный подход, традиционный (диагностический), современный (развивающий) подход, направление фриланса и др.

Kasb-hunarga yo'naltirishda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari bilan birga ular tanlayotgan sohaga layoqati qay darajada muvofiqligini aniqlash, bu borada fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining shaxsiy namunasi va hamkorligini mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi Bu esa, o'z navbatida, o'g'il-qizlarning hunar egallash va o'zini o'zi band qilish orqali xizmatlar ko'rsatish (frilansing) yo'nalishiga qiziqishini aniqlashga ko'maklashmoqda.

Kasb egalarining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish uchun turli uchrashuv va sayyor mashg'ulotlar tashkil etilayotgani bolalarning sohalar haqidagi tasavvurini boyityapti. Ularni kasb-hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarini shakllantirishda, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun mustahkam zamin yaratuvchi tashxis xizmatiga ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsni kasbga yo'naltirishda ham individual xususiyatlarini ham xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak.

Bizga ma'lumki bizning faxrimiz bo'lgan vatandosh mutaffakirlarimiz Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munnavar qori Abdurashidxon o'g'li, Oqiljon Sharofiddinov, Abdulla Avloniylar va boshqalar yangi maktablar ochib, u yerda ta'lim tarbiya jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini bирgalikda olib borganlar. Krupskaya, Davletov, Tolipov, Saidaxmedov, SH.Abdullayeva, J.Yo'ldashev, S.Usmonova, S.Abduraxmonov va boshqa kasbga yo'naltirish bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tatqiqot ishlari olib borganlar Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy-pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv

qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash me'zon va me'yollarining belgilanmaganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalalardan biridir. Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish tizimida professionalizmni shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar va ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirishga ta'sir qiladigan omillar ish jarayonida ko'rsatilib ularga tahlil berish;

Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish va uni ta'lim tizimini rivojlanishidagi o'rnini o'rganib chiqish va xulosalar berish.

Barchamizga ma'lumki umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirishning turli nazariy izoxlari orasida hozirgi vaqtida ikkita eng muhim tushunchalarini ko'rsatish mumkin, bular:

Ana'naviy (diagnostik);

Zamonaviy(rivojlantiruvchi);

An'anaviy (diagnostik) kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasining asosiy vazifasi shaxsda kasbiy moyillikni undagi psixologik xususiyatlar va shaxsiy extiyojlarini solishtirish yo'li bilan aniqlash. Bunda asosiy mas'uliyat kasbiy konsultantga yuklanadi. U test o'tkazish yo'li bilan va ulardan olingan natija asosida shaxsni u yoki bu kasb-hunarga moyilligini aniqlaydi. Bu xolda shaxs, ya'ni ta'lim oluvchi passiv rolini o'ynaydi.

Zamonaviy (rivojlantiruvchi) kasb-hunarga yo'naltirish konsepsiyasi shaxs o'z kelajagini aniqlashda aktiv ishtirokini nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor shaxsnинг turli xil sohalarni egallashi jarayonida undagi rivojlanishni aniqlashga qaratiladi. Kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-tarbiyaviy ishlarining qismi sifatida ko'riladi. Kasb-hunar tanlashga tayyorgarlik esa shaxsga jamiyat tomonidan ta'sir etuvchi bir tarbiyaviy tizim asosida ko'riladi.

Demak, maktabdagи har bir xodim kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirishini bilishi lozim. Chunki, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda nafaqat mакtab kasb-hunarga yo'naltiruvchisi yoki amaliyotchi psixologi, balki butun mакtab jamoasi mas'uldir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishda maskan tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Bunday maskanlar albatta oila, mакtab, mahalla hisoblanadi.

Mакtab, oila mahalla va ishlab chiqarishning hamdo'stligi yosh avlodni yangi ruhda tarbiyalashning asosiy prinsipi hisoblanadi. O'quvchilarda professional qiziqishlarini rivojlantirish va tarkib toptirish, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatish sohasi ishchi kasblariga ijtimoiy e'tiborning ortishi, xayot yo'lining ongli ravishda tanlash ishining muvaffaqiyati mакtab, oila, mahalla va ishlab chiqarishning birgalikda olib borilgan samarali ishlariga bog'liq. Shaxsni tarbiyalash asoslari oiladan boshlanadi, ya'ni o'quvchilar ba'zi kasblar bilan, xususan o'z ota-onalari, akalari, opalari, qarindosh urug'larining kasblari bilan oilada tanisha boshlaydilar bu esa

o‘quvchilar professional qiziqishlarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning hamma ota-onalarini (ularni o‘z bolalari bilan oilaviy kasb tanlashga yo‘llash ishlarida aktiv ishtirok etish darajasiga qarab) taxminan 4 katigoriyaga bo‘lish mumkin.

1. Ota-onalar bolalarining o‘yinlari va mehnatini kuzatadilar, uyda bolalari qiziqqan har qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun sharoit yaratib beradilar; bolalari bilan korxona, kallektivning mehnati haqida, o‘z ishlab chiqarish muoffaqiyatlari to‘g‘risida suhbatlashadilar; ularning qiziqishlari va qobiliyatları va xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq maslahatlar beradilar.

2. Ota-onalar bolalari bilan kasb tanlash haqida suhbatlashadilar, lekin aktiv ta’sir ko‘rsatmaydilar, o‘z bolalarining individual xususiyatlarini har doim ham hisobga olavermaydilar.

3. Ota-onalar bolalarining rejalariga ha deb aralashaveradilar, ularning qiziqishlari, istak va imkoniyatlarini hisobga olmaydilar, kasbning moddiy va obro‘li tamonlaridan kelib chiqib o‘zlarini tanlagan ixtisosni egallashga majbur qiladilar.

4. Ota-onalar o‘z balolarining kelajagiga passiv va sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularga kasb tanlashga yordam bermaydilar, bu muammodan o‘zlarining behabarligi va noto‘g‘ri maslahat berib, qo‘yishlaridan cho‘chib, “o‘zing o‘ylab ko‘r”, “qaysi biri yaxshi bo‘lsa shuni tanla” va hokozalar qabilida ish tutib, o‘zlarni chetga tortadilar. Ko‘pchilik ota-onalar kasb tanlashga yo‘llash masalalari bo‘yicha maslahatlariga muhtojdirlar. Ular bunday yordamni suhbat, konsul’tatsiya va boshqa tadbirlar formasida maktab pedagogika jamoasi, vrach, psixolog, korxona mutaxasislaridan olish mumkin. Maktab o‘zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar kanferensiyasini uyushtirish va o‘tkazish kerak. Bu konfrensiyalarda korxona kadrlar bo‘limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo‘yicha bo‘limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning, vakillari va o‘quv yurtlarining rahbarlari hamda ota onalar so‘zga chiqishlari mumkin bo‘ladi. Ular o‘z kasblarining mazmuni haqida muvofaqiyatli mehnat qilishi uchun qo‘llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to‘g‘risida bu kasbni qayyerda va qanday egallah va shu hususida qanday mahoratli bo‘lish haqida; yoshlardan keladigan qiyinchiliklar haqida va o‘quvchilar bilan oilaviy suhbatlaruchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Oliy ta’lim Me‘yoriy hujjatlari” T.: “Sharq”, 2001.
- Qodirov B. “Ta’lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo‘nalishlar”. T. “O‘zbekiston” - 2000 y.

3. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH., Sattorov V.N., Avazboyev O.I. “Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan o‘quv mashg‘ulotlari”. Uslubiy qo‘llanma. 2002.
4. Azizzxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. T.: Nizomiy, 2003.
5. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. “O‘quvchilarni o’

